
SAXOVAT SARHAD BILMAS



Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini o'zining saxovatpesha tadbirkorlari va oliyjanob insonlari bilan dong taratgan. Qayd etish lozimki, mahallada bunday xayr-saxovat amallarda xotin-qizlar va tadbirkor ayollar ham faollik bilan qatnashmoqda.

«Saxovat va ko'mak» harakati doirasida saxovatmand ayol Nishonova Yulduzxon homiyligida Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini Kengash a'zolari ishtirokida 74 qop un mahsuloti kam ta'minlangan oilalarga tarqatilib, ehtiyojmand fuqarolar holidan xabar olindi.



- Zero muhtojlarga xayr-saxovat qilish insonlar o'rtasida mehr-oqibat rishtalarini yanada mustahkam bog'lanishiga, o'zaro hurmat va totuvlik hislarini ortishiga, dunyoviy ishlarini rivoj topishiga xizmat qiladi, - deydi mahalla raisi Suvhonali Nishonov.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-09-30 14:22:45